




# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

5/2023



E-ISSN 2181-1466

9 772181 46004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

5/2023

http://buxdu.uz

<b>Хамраев Ю.Ю., Норова М.О.</b>	Об однородных разностных схемах высокого порядка точности для краевой задачи с особенностью	110
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Asadov T.H.</b>	Predmet-belgi ma'noli yasama so'zlar va ularning lug'atlardagi ifodasi	116
<b>Rakhmatova M.M.</b>	Pragmatic analyses of implicature in the novel "The fault in our stars" by John Green	122
<b>Adizova N.I.</b>	Badiiy matnning lingvostilistik tadqiqi va ijodkor uslubi	126
<b>Alisoy H.H.</b>	A comparative study of Lithuanian and old Prussian	133
<b>Boltayeva N.R.</b>	Siyosiy tilshunoslik fan sifatida	139
<b>Axmedov A.R., Hamroyeva M.R.</b>	Badiiy asarlardagi antroponimlarning lug'aviy qatlam masalasiga doir lingvistik tahlil va xulosalar	144
<b>Mamaraximov S.</b>	Leksemalarning barqarorlashishi hamda nutqiy ma'noning lisoniylashuvi	149
<b>Mamatqulov A.</b>	O'zbek tilida so'z yasalishi Azim Hojiyev nazdida	153
<b>Mardonova S.O.</b>	Muallif nutqi metaforalarining struktur-semantik tabiati xususida (U.Azim she'riyati misolida)	157
<b>O'razov A.D.</b>	Tog'ay Murod asarlarida evfemizmlar va disfemizmlardan foydalanish mahorati	161
<b>Исақова З.З.</b>	Тилшуносликдаги баҳо семантик категорияси ва ёндош семантик ҳодисалар	165
<b>Шарипов Ж.</b>	Сўз ясашда лисоний ва нолисоний омиллар	170
<b>Шарипов Ф.Г.</b>	Морфологик луғатларнинг яратилиши – янги амалий босқич калити	175
<b>Saidov S.S.</b>	An overview of corpus linguistics and its benefits in language teaching	180
<b>Babayev M.T.</b>	Nemis va o'zbek tillarida evfemizmlarni qiyosiy o'rganish	185
<b>Niyozova Sh.T.</b>	The contrastive analysis and research of national specificity of phraseological semantics	193
<b>Seyidov R.R.</b>	Effective approaches for teaching arabic: a comprehensive guide to enhancing language instruction	197
<b>Abatov D.R.</b>	Antroponimik indikatorlar va ularning xalq dostonlari matnida qo'llanishi (Qashqadaryo xalq baxshilari dostonlari misolida)	209
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Annaxasanova I.B.</b>	Analysis of scientific works on studies of Alisher Navoi in Russian orientalism in the XX century	213
<b>Fozilova O'F.</b>	Firdavsiyning "Shohnoma" asarida navro'z va unga doir tushunchalarning yoritilishi	217
<b>Jabbarova M.X.</b>	Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlarida ayol obrazidagi ruhiyat tipologiyasi	223
<b>Khabibova M.N.</b>	Jeyms Joysning adabiy uslubi va asarlaridagi epistoliar texnika	229

**PREDMET-BELGI MA'NOLI YASAMA SO'ZLAR VA ULARNING LUG'ATLARDAGI  
IFODASI**

*Asadov To'liq Hamroyevich,  
Buxoro davlat universiteti,  
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika  
kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada ot va sifat yasashda ishtirok etadigan predmet-belgi ma'noli affikslar, ularning nazariy manbalardagi tadqiqi, grammatik tabiati, so'z yasashdagi imkoniyati, shu affiksli so'zlarning lug'atlardagi ifodasi keng izohlangan, munosabat bildirilgan va misollar bilan dalillangan.*

*Kalit so'zlar: predmet ma'noli so'z, belgi ma'noli so'z, ot, sifat, affiks, ma'noviy farq, so'z turkumi, lug'at, faol so'z yasalish, nafaol so'z yasalish.*

**ПРОИЗВОДНЫЕ СЛОВА С ПРЕДМЕТНО-ЗНАКОВЫМ ЗНАЧЕНИЕМ И ИХ  
ВЫРАЖЕНИЕ В СЛОВАРЯХ**

*Аннотация: В данной статье широко объясняются аффиксы с предметно-знаковым значением, участвующие в образовании имён существительных и прилагательных, их исследование в теоретических источниках, выражается и доказывается примерами их грамматическая природа, возможность образования слов, выражение слов с этими аффиксами в словарях.*

*Ключевые слова: слово с предметным значением, слово со знаковым значением, имя существительное, прилагательное, аффикс, семантическое различие, часть речи, словарь, активное словообразование, пассивное словообразование.*

**DERIVATIVE WORDS WITH OBJECTIVE-SIGN MEANING AND THEIR EXPRESSION  
IN DICTIONARIES**

*Annotation: In this article, affixes with subject-sign meanings involved in the formation of nouns and adjectives are widely explained, their study in theoretical sources, their grammatical nature, the possibility of forming words, the expression of words with these affixes in dictionaries is expressed and proved by examples.*

*Key words: word with objective meaning, word with sign meaning, noun, adjective, affix, semantic difference, part of speech, dictionary, active word formation, passive word formation*

**Kirish.** O'zbek tili "so'z yasalishi" bo'limida bir qator affikslarning ham predmet (ot), ham belgi (sifat) ma'noli so'zlar yasay olishi haqidagi bayon (fikir-mulohaza)lar mavjud. O'zbek tili grammatikasiga oid asarlar [15;18;19], xususan, o'zbek tili leksik qatlamidagi so'zlarning shakliy tarkibi [25], so'z yasalishi [5;6] ga tegishli manbalar buni dalillaydi.

**Asosiy qism.** O'zbek tilida so'z yasash imkoniyati u yoki bu darajada bo'lgan quyidagi (unumli-unumsiz) affikslar predmet-belgi ma'noli ot va sifat so'zlar yasashda (omonim affiks sifatida) ishtirok etadi: *-a (yara, g'arg'ara; ko'tara savdo, qo'sha-qo'sha uy), -ak (qarsak, g'ijjak; qirmizak, g'alvirak), -boz (bedanaboz, kaptarboz; qog'ozboz, arizaboz), -bon (darvozabon, zindonbon, kishanbon), -gar (misgar, sovungar; hiylagar, firibgar), -gich (suzgich, purkagich, ko'targich; bilgich), -don (surmadon, guldon; bilimdon, qadrdon), -dor (chorvador, amaldor; go'shtdor, kungurador), -dosh (sinfdosh, vatandosh; dildosh, fikrdosh), -(u)k (ko'rik, ko'pik; egik, chirik), -ildoq (shilpildoq, hiqildoq; po'rsildoq, shaqildoq), -iq (chopiq, chiziq, tortiq, qiliq; yoyiq, bo'liq, to'liq), -im (bilim, kiyim; siqim, ayrim), -in (yog'in, yig'in, ekin; chirkin, sog'in sigir), -kash (aravakash, mehnatkash, qalamkash; dardkash, xayolkash), -kor (sholikor, qalampirkor; savolkor, ta'zimkor), -ma (bostirma, tugma; qaynatma, ko'tarma), -oq (boshoq, o'roq; qoloq, baqiroq), -ch (ishonch, quvonch, ayanch; jirkanch, tinch), -chi (suvchi, gulchi; a'lochi, ikkichi), -q/iq (suvoq, chiziq, chanqoq; porloq, titroq), -g'in (yong'in, quvg'in; ozg'in, so'lg'in) va b. Mazkur affikslar bilan hosil bo'lgan ko'pgina so'zlarga bugungi kun nuqtayi nazaridan, albatta, tarixiy so'z yasalish qolipi hosilalari sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Ma'lumki, so'z yasash qolipi hosilalari miqdori, bu hosilalarning aniq ma'nolari lug'atlar orqali belgilanar ekan, muayyan bir affiks yangi-yangi so'z hosil qilmas ekan bunday so'z yasash qolipi unumsiz hisoblanadi [13,43].*

Tahlilga tortilgan yuqoridagi kabi so'zlarning "predmetlik" yoki "belgilik"ka munosabati masalasi alohida kuzatishga zarurat sezadi. Bu kabi yasama so'zlarni dastlab ikkiga bo'lib tasnif etish mumkin:

1) predmetlik va belgilik ma'nosi to'liq farqlanadigan so'zlar (chunonchi: *surmaddon, guldon, tuzdon* – ot turkumi; *bilimdon, qadrdon* so'zlari – sifat turkumiga xos)

b) predmetlik va belgilik ma'nosi qisman farqlanuvchi yoki umuman farqlanmaydigan so'zlar (chunonchi: *arizaboz, fikrdosh, dilkash, puldor, mehnatkash, javobgar, ig'vogar, gumondor, pastkash, omilkor, maslakdosh, yollanma, hovliqma* va h.k.) Ko'rinib turibdiki, 2-guruh so'zlarining ot yoki sifatligini farqlovchi aniq ma'noviy omil yo'q. Vaholanki, manbalarda ular ba'zida ot, ba'zida sifat deb izohlanadi.

Aytish o'rinliki, predmetlik, belgilik ma'nolarining borliq va uning in'ikosi bo'lgan tildagi o'zaro munosabatlari dunyo tilshunosligida faylasuf va tilshunoslarning doimiy kuzatish obyekti bo'lib kelgan. Bu kabi ma'nolar barcha mustaqil so'z turkumlarida turli darajalarda bo'la oladi. Biz bu o'rinda ot va sifat doirasidagi predmet/belgi ma'noli qo'shimchalarni tahlilga tortishni ko'zladik.

Aslida, predmetlik ma'nosi otlarda yorqin, sifatlarda kuchsiz holda kuzatiladi, shu sababli ba'zida ot va sifatarni so'z turkumlikka ko'ra farqlash qiyin kechadi. Yoki o'zbek tilida belgilik ma'nosi nafaqat sifat, ravish so'zlar yoki grammatik shakllar bilan, balki prof. H.Ne'matov, O.Bozorov I.Madrahimov, B.Mengliyev, J.Eltazarov, N.Shirinova tadqiqotlarida ko'rsatilganidek turli sintaktik birikuvlarda kelgan fe'l (shakllari), ot, son, taqlid so'z, olmoshlar bilan ham bemalol ifodalanishi mumkin[3;4;8;11;12;26]. Aslida, ot va sifatning yondosh holdagi taraqqiyoti, faoliyati bu turkumlarda o'zaro "tabiat almashishi"ga sabab bo'lgan. Bunday holat barcha turkum so'zlarida kuzatilishi mumkin. Bu tabiiy jarayon bo'lib, ularning turkumlik jihatdan turg'unlashishi (qat'iydashishi) muayyan bir davr (ijtimoiy tuzum) bilan ham bog'liq. Qolaversa, mazkur holat til va nutq differensiyasi, so'zning til va nutqdagi o'rni[12;14], predmet-belgi ma'nosining gradual munosabatlar, gradual tilshunoslik tahlil usullari[3], morfologik vositalarning nutqdagi ma'noviy va sintaktik imkoniyatlari[11], so'zlarning tasniflashi[7;8], so'z turkumlaridagi o'zaro aloqa va ko'chish (konversiya) hodisasi[4], predmet/belgilik ma'nolarini farqlovchi vositalari[26] kabilar bilan ham belgilanadi.

Predmetlik va belgi-xususiyat farqlanishini maxsus o'rgangan tadqiqotchi N.Shirinova ta'kidlaganidek "...borliqdagi predmetlik va belgi-xususiyat sinkretizmi tilda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi, lisoniy tizimda predmetlikni alohida, belgi-xususiyatni alohida ifodalovchi vositalar bilan birga predmetlik ma'nolarida belgi xususiyat ma'nolarini kuchaytiruvchi va aksincha, belgi-xususiyat ma'nolarida neytrallashtiruvchi, birlashtiruvchi usul hamda vositalar mavjud"[26,10]. So'zlarni turkumlashda ulardagi umumiy va xususiy tabiiy belgilar ("turkumlik ma'nosi" – A.Hojiyev) ga tayanib ish tutish so'zni izchil tasniflash, ma'lum bir turdagi guruhga ziddiyatsiz ajratish imkonini ham beradi. Shunday dialektik tamoyillar asosida ajratilgan so'z turkumlarida ularning o'zaro munosabati – bog'lanishi, o'xshashligi va farqi o'z aksini topgan bo'ladi.

Predmetlik, belgilik ma'nosiga ko'ra qisman farqlanuvchi ot va sifat yasovchi affikslarga -boz, -gar, -dor, -dosh, -kash, -kor, -ma, kabilar mansub bo'lib, lug'atlarda[16;20;21;22;23;24] o'z ifodasiga ega bu kabi affiksli yasama so'zlarda a) predmetlik(ot), b) belgilik(sifat), v) predmet-belgilik (ot+sifat) tabiat kuzatiladi. Ko'rsatilgan affikslarda predmetlik va belgilik ma'nosi sinkret tarzda kuzatiladi. Mazkur affiksli so'zlarning shu nuqtayi nazardan yondashilgan tasnifini quyidagicha keltirish mumkin:

*-boz/voz affiksi.* O'zbek tili lug'at qatlamida *-boz* affiksi bilan yasalgan 50 dan ortiq so'z keltirilgan[16,51-52]. Bu so'zlarni ma'no ifodasiga ko'ra:

1. Predmet ma'nosi birlamchi so'zlar (PMBS): *masxaraboz, dorboz, qilichboz, qimorboz, askiyaboz,*
2. Belgi ma'nosi birlamchi so'zlar (BMBS): *qofiyaboz, nazmboz, atomboz.*
3. Predmet-belgi ma'noli so'zlar (P-BMS): *arizaboz, guruhboz, qog'ozboz, kaptarboz, lo'ttiboz* va b.

kabi turlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Ayrim misollarni kuzatamiz: *Shu mo'jaz hayotimda ko'rdim goho lo'ttiboz, Ko'rdim goho she'rfurush, goho sur, mansabfurush. (A.Oripov) Bir oy o'tar-o'tmas tuppa-tuzuk bedanaboz bo'ldi-qo'ydi. (S.Nurov) Sen, bolakay, qaytishda anavi kaptarboz bolani ham oldingga solib kelgin. (H.Nazir)*

*-dor affiksi.* Ters lug'atda bu affiks bilan yasalgan 140ga yaqin so'z keltiriladi[16,142-143]. Fors-tojik tilidan o'zlashgan *-dor* affiksli so'zlarning bir qismi boshqa o'zlashma affiksli so'zlar kabi shu o'zlashma so'z tarkibi bilan birga kirib kelgan. *-dor* affiksli so'zlarning katta qismi belgi ma'noli so'zlar hosil qilishi aytiladi[5,57-62]. Aslida ham mazkur affiksning o'z qatlami (fors tili) dagi tabiati [25,413] uning belgi ma'noli so'zlarni hosil qilishga moyilligi yuqori ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tili lug'at qatlamidagi *mulkdor, do'kondor* kabilar til rivojining keyingi davrlaridagina shaxs oti bo'lib turg'unlashdi. Lug'atlarda mavjud *-dor* affiksli so'zlarni predmetlik yoki belgilik tabiatiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. PMBS: *chorvador, bayroqdor, hukmdor, do'kondor, muhrdor, xaridor.*

2. BMBS: guldor, go'shtdor, unumdor, mehmondor, rozg'ordor, zotdor.

3. P-BMS: puldor, homilador, yarador, aybdor, gumondor va b.

*-gar affiksi.* Lug'atda *-gar* affiksi bilan hosil bo'lgan o'ttizdan 30 dan ortiq so'z keltiriladi [16,136]. Bu so'zlarni predmet- belgiga munosabatiga ko'ra:

1. PMBS: kimyogar, sovungar, sehragar, holvagar, savdogar, zargar, chilangar.

2. BMBS: jilvagar, ishvagar, hiylagar.

3. P-BMS: ig'vogar, firibgar, nag'magar, javobgar va b. tarzida tasniflash mumkin.

*-dosh affiksi.* Ters lug'atda *-dosh* affiksi bilan 40 ga yaqin so'z beriladi [16,175]. Bular:

1. PMBS: qarindosh, sinfdosh, kundosh, zamondosh, yo'ldosh, tengdosh.

2. BMBS: ma'nodosh, qofiyadosh, asosdosh, ohangdosh.

3. P-BMS: undosh, chegaradosh, qardosh, qondosh va h.k.

*-kash affiksi.* Lug'atda *-kash* affiksi bilan 50 ga yaqin so'z mavjud [16,44]. Mazkur so'zlarning ko'pida "predmetlik" ustunlik qiladi:

1. PMBS: zahkash, aravakash, xaskash, suratkash.

2. P-BMS: pastkash, zahmatkash, mehnatkash, jafokash, dilkash, janjalkash, hazilkash, tarafkash, jonkash va b.

*-kor affiksi.* Lug'atda bu affiks bilan aloqador 60 dan ortiq so'z berilgan [16,144-145]. Mazkur so'zlar tabiati quyidagicha:

1. PMBS: g'allkor, paxtakor, bastakor, sholikor, ijodkor, binokor.

2. BMBS: mo'jizakor, tillakor, bahorikor, tezkor, devkor, omilkor, zulmkor, fidokor, isyonkor va h.k.

*-ma affiksi.* Bu affiks so'z yasashda sermahsul bo'lib, ters lug'atda 116 ta so'z mazkur shakl bilan bog'liq [16,21-23]. A.Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi tizimi" kitobida *-ma* affiksi ham ot, ham sifat yasashda mahsulli ekanligi, birgina ot turkumiga oid 100 ga yaqin so'z mavjudligi aytiladi [6,81]. Qiyoslaymiz:

1. PMBS: atama, yo'qlama, tenglama, qoplama, tirkama, chizma, jamg'arma, qotishma, cho'kma, eritma, isitma, otishma, damlama.

2. BMBS: ulama (soch), aylanma (yo'l), osma (chiroq), ag'darma (etik), quyma (oltin), qotma (yigit).

3. P-BMS: qiyma, qochirma, ezma, uchirma, qichima va b.

Predmet-belgi ma'noli so'zlarni xuddi shu tarzda izohlashimizga quyidagilar asos bo'la oladi. Buni -dor affiksli yasama so'zlar orqali kuzatamiz: 1) birinchi guruh (PMBS) so'zlari hech qanday sifatlovchisiz yakka holda qo'llana oladi. 2) ikkinchi guruh (BMBS) so'zlari (*guldor, go'shtdor...*) qo'llanishda sifatlanmishga zarurat sezadi: *Sopi guldor pichoq.* 3) uchinchi guruh (P-BMS) so'zlari (*puldor, gumondor, aybdor, homilador...*)ning matn bilan bog'li holda ba'zida predmetlik, ba'zida belgilik ma'nosi "bo'rtib" namoyon bo'ladi, bunda nutqiy vaziyatiga qarab ot yoki sifat deb baholanadi. Predmet-belgi ma'noli bu kabi "oraliq so'zlar" yakka tarzda (ellipsis hodisasi doirasida) ham, sifatlovchi+sifatlanmish xarakterida ham keladi: 1.*Puldor odam – qanotli odam, bu qanot bilan mag'ribdan mashriqqa uchasan, har yerda oshnagog'ayni, do'st-yor topasan.* (Oybek) 2.*Puldorlar har bir narsani o'z vaqtida g'amlab, arzonga tushirishadi.* (Oybek).

Ma'lumki, ellipsis hodisasi tildagi lingvistik iqtisod – lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida voqelanadi [10]. Xuddi shu nuqtayi nazardan 2-kontekstdagi bog'liqlik *odam* so'zining ellipsislashishga to'la imkon yaratgan. Natijada "belgilik" susayib "predmetlik" bo'rtgan.

O'zbek tilining izohli lug'ati"da predmet-belgi ma'noli -dor affiksli so'zlarning izohlanishi e'tiborni tortadi:

I. PMBS izohi: 1.Chorvador. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishi [23,509] 2.Aksiyador. Aksiyalar egasi; undan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs; aksiyadorlik jamiyati a'zosi [20,65]. 3.Sarmoyador. Katta sarmoya egasi [22,451]. 4.Bog'dor. Bog' egasi; bog'bon [20, 350]. 5.Hissador. Hissa qo'shgan, pay kiritgan sherik [24,538]. 6.Mulkdor. Mulk subyekti, mulk obyektiga egalik, ...jismoniy yuridik shaxs; katta yer egasi, zamindor [21, 634].

II. P-BMS izohi: 1.Yarador. Jarohat olgan, jarohati bor; yarali. *Yarador saldat.* [24,116]. 2.Taqvodor. Mustahkam diniy e'tiqodli, xudojo'y, dindor; harom-harishdan hazar qiladigan, o'zini saqlaydigan, tiyadigan, pok [23,35]. 3.Gumondor. Biror kimsa yoki narsadan gumon, shubha qiluvchi, shubhalanuvchi [20,524]. 4.Mansabdor. Biror mansabga, lavozimga ega bo'lgan; amaldor [21,539]. 5.Puldor. Ko'p pulga ega bo'lgan, puli ko'p [22,320].

Kuzatishlar ko'rsatadiki, -dor affiksli predmet yoki belgi ma'noli leksemalar ma'no-ifodasi sharhida lug'at tuzuvchilar so'zning grammatik ma'nosiga ham u yoki bu darajada ahamiyat qaratadi. Lug'atda predmetlik (shaxs oti) ma'nosi ustuvorlik qilsa, shu so'z so'ngida "shaxs", "kishi", "egasi" kabi

birliklardan foydalanishgan (jumladan: *arizaboz* – “ariza yozishga berilgan *shaxs*”), belgilik ma’nosi ustuvorlik qilsa (jumladan: *hiylakor* – “hiyla ishlatishga usta, hiyla bilan *shug’ullanuvchi*”, *pastkash* – “arzimagan narsaning ham yuziga *boradigan*, *arzimas narsalarga ham o’zini uradigan*, nazari *past*” tarzida) “-(u)vchi, -gan affiksli birliklar” bilan qo’llangan.

Umuman, predmet-belgi ma’noli muayyan bir so’zning ot bo’lib turg’unlashishi yoki sifat turkumiga siljishida muayyan bir qonuniyat mavjud emas, bu tilning ijtimoiyligi bilan bog’liq. Masalan, ijtimoiy tuzumning ma’lum bir tarixiy davrida, oktyabr to’ntarishidan oldingi davrida, maktab-maorif sohasida xususiy maktabi bo’lgan shaxs *maktabdor* deyilgan, demakki, davr nuqtayi nazaridan bu so’z shaxs oti sanalgan. Sobiq ittifoq davrida bu faoliyat turiga to’siq qo’yilgach mazkur so’zning iste’mol doirasi ham keskin cheklanib, qisqa vaqtda tarixiy so’zga aylandi. Bu so’z shu kasb egalari faoliyatining rivoji bilan bog’liq holda yana “jonlanib” shaxs oti guruhidan o’rin egallashi mumkin. Predmet-belgi ma’noli *nag’magar* so’zi borasida ham shu kabi fikrni aytish mumkin. Bu so’z tarixda sozandalik, musiqa bilan *shug’ullanuvchi* kash egasining nomi bo’lgan [21,30]. *Nag’magar* so’zi keyinchalik (XIX asr II yarmidan boshlab) *aktyor* so’zi bilan atala boshlandi. Natijada -gar affiksining grammatik tabiatiga uyg’un holda belgi ifodasi uchungina qo’llanadigan so’zga (masalan: *nag’magar odam*, *nag’magar bola* va b.) aylanib qoldi. Demak, *nag’magar* so’zida dastlabki davrda predmetlik (shaxsga ishora) mavjud bo’lgan bo’lsa, bugungi kunda mazkur so’z belgi ifodasi uchun qo’llanadi. So’z ma’no ifodasida kuzatiladigan bu holat davomiy kechadi, shu sababli izohli lug’atlar ham tez-tez yangilanib turishga ehtiyoj seziladi.

Ta’kidlash lozimki, so’zlarni izohlash jarayonida yasama so’zlarning ixtisoslashgan ma’nolarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Leksema hosil bo’lishining bir usuli sifatida talqin etiladigan mazkur hodisa oz sonli ishlarda tadqiq etilgan[2;9;13]. Bilamizki, ko’pgina yasama so’zlarda “tarixan yasama bo’lgan leksema ma’nosining so’z yasash qolipi ma’nosidan uzoqlashishi, ixtisoslashishi”[13,44] yuz bergan bo’ladi. O’zbek tilshunosligida so’z turkumlari chegarasi bilan bog’liq muammolarning bir qismi fanda ixtisoslashish, atamalashish [13,45] hodisasi inobatga olinmaganligi bilan ham bog’liq. Bu kabi shaklan va mazmunan mustaqil bo’lgan, yaxlitlangan, ixtisoslashgan ma’nodagi so’zlarni lug’atchilar alohida so’z sifatida izohlashi lozim bo’ladi. Chunki nutqiy birlikning lisoniylashish bosqichiga o’tishi (masalan: shaxs oti va ismi foillarni ajratish) tamoyili [17], bunda ma’noviy ixtisoslashuv ro’y berishi kabilarni inobatga olish lug’atchilar oldidagi mas’uliyatlardan biri sanaladi. Biroq mazkur hodisalarni inobatga olishda izohli lug’atlarda yakdillik mavjud emas. Masalan, predmet-belgi ma’noli *gumondor* so’zining ixtisoslashgan, ya’ni huquqshunoslik termini sifatidagi ma’no ifodasi “O’zbek tilining izohli lug’ati”da kuzatilmaydi. *Gumondor* so’ziga nisbatan “biror kimsa yoki narsadan gumon, shubha qiluvchi, shubhalanuvchi” tarzidagi ifoda mavjud [20,524]. Xuddi shu so’zga shaklan va mazmunan yaqin “aybdor” so’zining izohlanish tartibi esa batamom o’zgacha [20,51]. Bunda *aybdor* so’zining dastlabki ma’nosi hamda asl ma’nodan uzoqlashgan (yaxlitlangan) fanniy termin sifatidagi ixtisoslashgan ma’nosi alohida-alohida, batafsil berilganligiga guvoh bo’lamiz: 1. **Ot.** Ayb ish qilgan kishi; gunohkor. 2. **Ot, huq.** Jinoiy ish qilgan, qonunga xilof ish qilgan, jinoiy javobgar kishi. 3. **Sft.** Jismoniy jihatdan kamchiligi, nuqsoni, illati bor, aybli. Ko’rinadiki, lug’atda predmet-belgi ma’noli “oralik ma’noli” so’zlarni izohlashda uyg’unlik mavjud emas.

Lug’atda predmet-belgi ma’noli yasama so’zlar ma’no izohiga ko’ra talqinida uch holat kuzatiladi. Bir guruh so’zlar (*arizaboz* [20,97], *qog’ozboz* [24,358], *qofiyaboz* [24,349] va b.) **shaxs oti** sifatida belgilansa, yana bir guruh (2-guruh) so’zlari (jumladan; *ig’vogar* [21,265], *hiylakor* [22,30], *nag’magar* [22,30]) ni turkumlik jihatdan baholashda, lug’atchilar qiyinchilik sezishgan va buning yechimini **shaxs** so’zini qavs ichida berish bilan hal qilmoqchi bo’lishadi. Kuzatamiz: *ig’vogar* – *ig’vo bilan shug’ullanuvchi*, *ig’vo tarqatuvchi* (*shaxs*) kabi. Lug’atda yana bir guruh (3-guruh) so’zlar (*pastkash* [22,235], *fidokor* [23,343], *yollanma* [21,32]) izohida turkumlik masalasi ochiq qoladi.

O’zlashma (fors-tojikcha) affiksli predmet-belgi ma’noli o’zbekcha yasama so’zlarni turkumlashda ulardagi affikslarning o’z tili qatlamidagi grammatik tabiati bilan hisoblashish ham ayrim chalkashliklarni yoritishda yordam berishi mumkin. Chunki ularning (jumladan: -boz – “o’ynovchi, o’ynamoq”, -gar – “ish, faoliyat; qilmish, xatti-harakat”, -dor – “ega bo’luvchi; saqlovchi, qo’riqlovchi”, -kash – “tortmoq, chekmoq”, -kor – “ish; mehnat, faoliyat, qilmish, xatti-harakat”<sup>1</sup>) asl tabiati o’zbek tilida doim ham yorqin ifodaga ega bo’lavermaydi.

Predmet-belgi ma’noli affikslarning so’z yasashdagi unumli-unumsizligi turli darajada. O’zbek tiliga oid materiallar (badiiy asar namunalari)ni kuzatish orqali predmet-belgi ma’noli affikslarni unumli-unumsizligiga ko’ra uchga bo’lib o’rganish mumkin: a) unumli affikslar: -kor, -dosh, -boz/voz; b) o’rta

<sup>1</sup> Qarang: N.Mahmudov, A.Madvaliyev. So’z yasovchi va shakl yasovchi qo’shimchalarning izohli-illyustrativ ko’rsatkichi. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўз.Милл.энкц. 572-591-б.

unumli affiksalar: *-bon, -gar, -don, -dor*; b) unumsiz affiksalar: *-a, -ak, -gich, -(u)k, -in, -oq, -ch*. Unumli affiksalar bugungi kunda ham yangi-yangi nutqiy yasama soʻzlar yasashda ishtirok etyapti. Misollarni kuzatamiz:

*-kor* affiksi. Mazkur affiksning faoliyati *-zor* affiksi kabi, odatda, turli-tuman oʻsimliklar bilan bogʻliq. Masalan, nutqimizda *tamaki* soʻzi (oʻsimlik nomi)ning paydo boʻlishi bilan shu soʻz doirasidagi *tamakikor* soʻzining yasashiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda *paxtakor, sholikor, gʻallakor* kabi soʻzlarning yasashi meʼyoriy hol boʻlsa, vaqt oʻtib *qalampirkor, qizilmiyakor, soyakor* kabi nutqiy yasama (otlar)lar umumisteʼmol birliklariga aylanib boradi.

*-kor* affiksi sifat yasashda ham ishtirok etyapti, yaʼni [ot+kor=sifat] qolipi faoliyati ham davom etyapti. Masalan: *Tillaring biyrondir, tillaring – savolkor/ Javob topolmasman – dillarim xira*. (U.Azim) *Dashtaro porlagan koʻshkni, saroymi/ Qoshida taʼzimkor bobo Navoiy*. (T.Axmad)

*-dosh* affiksi.

*Toʻyingda toʻydoshman, tirik yelkadosh,*

*Degayman, yosh umring oʻylab, ey qondosh*. (A.Oripov)

Ushbu misolda *toʻydosh* soʻzi *yelkadosh, qondosh* soʻzi qolipida yaratilgan boʻlib, yaqinlik, hamfikrlilni ifodalash zaruratiga koʻra vujudga kelgan. Xuddi shu qolip hosilasi sifatida Usmon Azim *taqdirdosh* nutqiy yasama soʻzini yaratadi:

*Taqdirdosh, qiynaldik, axir ikkimiz.*

Bu temir iz bilan, temir iz bilan.

Yana bir misol: *Yurakdoshmiz! Biz sheʼr degan bir balo dardga yoʻliqqanmiz!* (U.Azim)

*-boz/voz* affiksi. Mazkur affiks, odatda, fors-tojik lugʻat qatlamidan yasama soʻzlar tarkibi bilan oʻtgan boʻlib, oʻzbekcha soʻzlardan oz miqdorda yangi soʻz yasashi aytiladi. A.Hojiyev *-boz, -navis, -xon, -paz, -doʻz, -boz* shaxs oti yasovchi affikslari qatori *-boz* shaklini ham yangi soʻz yasay olmasligini, bu affiks deyarli mahsulsiz ekanligini taʼkidlab oʻtadi [6,75]. Biroq oʻzbek adabiyoti namoyondalari ijodini kuzatish davomida guvohi boʻlamizki, *-boz* affiksi bilan bir-ikki emas, balki oʻnlab soʻzlar yasashi uchraydi. Shuning oʻziyoq *-boz* affiksi haqida aytilgan fikrlarni rad etadi. (Jumladan: 1.*Men shoir emas, men nazmboz kosib/ Sheʼrim shuhratimga emas munosib*. (M.Yusuf) 2.*Koʻnglimni ozdirdi koʻngilbozliklar/ Izladim/ Koʻngildan koʻngil uzmadim*. (B.Fazliddin) Koʻrinadiki, [ot+boz] qolipi faoliyati davom etib kelyapti. Buning natijasida yangi-yangi muallif neologizmlari paydo boʻlmoqda [1,31].

*Eslamasa nima, men bir toʻpori,*

*Qishloqi soʻzbozni, osmon yiqilmas*. (M.Yusuf)

**Xulosa.** Xullas, predmet-belgi maʼnoli soʻz yasovchi affikslarning tabiati, bu soʻzlarning manbalarda, xususan, lugʻatlardagi ifodasini kuzatish orqali quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Ot va sifat doirasidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar maʼnoviy, vazifaviy tabiatiga koʻra a) predmetlik; b) belgilik; d) sinkret tarzidagi predmet-belgilik koʻrinishida boʻladi. Bu turkumlardagi ayrim yasama soʻzlarda predmet-belgi maʼnosi qorishiq tarzda keladi. Ulardagi predmetlik (ot) yoki belgilik (sifat) maʼnosining turgʻunlashishida tilning ijtimoiyligi rol oʻynaydi.

2. Predmetlik, belgilik maʼnosi qisman farqlanuvchi soʻzlarning hosil boʻlishi *-boz, -gar, -dor, -kash, -kor, -ma* kabi affiksalar faoliyati bilan bogʻliq. Mazkur affiksli soʻzlarning bir qismida turkumlik chegarasi mavhum boʻladi. Ularning matnif ifodasigina turkumlikni belgilashda koʻmak beradi.

3. Predmet-belgili “oraliq” soʻzlar grammatik maʼnosini yoritishda, yaʼni turkumlik belgisini koʻrsatishda (izohli) lugʻat tuzuvchilar u yoki bu darajada eʼtibor qaratganliklari aniqlandi. Lugʻatda bu kabilarda predmetlik (shaxs oti) maʼnosi ustuvorlik qilsa, shu soʻz soʻngida “*shaxs*”, “*kishi*”, “*egasi*” kabi birliklardan foydalanishgan boʻlishsa, belgilik maʼnosi ustuvorlik qilganda mazkur soʻzlar sharhida *-(u)vchi, -gan affiksli birliklar*” kabilar qoʻllangan.

4. Lugʻatlarda soʻzning grammatik maʼnosini izohlash jarayonida yasama soʻzning ixtisoslashgan (sohaviy) maʼnosini ham inobatga olish ot va sifat kesishuvidagi ayrim ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi.

5. Predmet-belgi maʼnoli soʻz yasovchi affikslardan ayrimlari oʻzbek tilida unumli soʻz yasashda ishtirok etib kelayotgani hamda mazkur nutqiy yasama soʻzlarning koʻpchiligi belgi ifodasi uchun qoʻllanayotgani kuzatiladi. Predmet-belgi maʼnoli nutqiy yasalmalar lisoniyashish jarayonini kechirgandagina izohli lugʻatlarga qamrab olinishi mumkin.

1. Asadov T., Mardonova S. O'zbek tilida faol so'z yasalishi va muallif neologizmlari. Monografiya. GlobeEdit. 2021.
2. Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1989. 6-сон, 36-41-б.
3. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995.
4. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. –Т.: Ўзб. милл. энцикл., 2006.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши. –Т.: Ўқитувчи, 1989.
6. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. –Т.: Ўқитувчи, 2007.
7. Исоқов З.С. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Фил. фан. номз...дис. автореф. – Фарғона, 2005.
8. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари: Фил.фан. номз... дис. –Т.: 1994.
9. Мадраҳимов И. Ўзбек тили лексемаларининг таркибига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2002. 4-сон, 29-30-б.
10. Махмудов Н. Эллипсис в узбекском языке: АҚН. –Т., 1978.
11. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Фил. фан. номз...дис. автореф. – Т., 1994.
12. Неъматов Х. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1988. 4-сон, 34-39-б.
13. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
14. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Самарқанд-2021.
15. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Шарқ, 2001.
16. Қўнғуров У., Тихонов А. Ўзбек тилининг терс луғати. – С., 1968.
17. Салоев Р. Ўзбек тилида исми фоиллар. Фил. фан. номз...дис. автореф. –Т.: 1995.
18. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т.: Fan va texnologiyalar. 2010.
19. Ўзбек тили грамматикаси. I том. –Т.: Фан, 1975.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006.
21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2006.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2007.
23. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
24. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
25. Ғуломов А., Тихонов А., Қўнғиров Р. Ўзбек тили морфем луғати.–Т.: Ўқитувчи, 1977.
26. Ширинова Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалар. Фил. фан. номз...дис. автореф. – Т., 2010.